





## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

### “Texnika fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Radon monitoring nazorati va radon o‘lchash vositalarini kalibrlash uchun havodagi radon faolligi birligi milliy etalonini yaratish</p>  <p>Camera radon measuring device</p>  <p>CAMERA-01 radon measuring device</p>  <p>Radon meter AlphaGUARD</p>  <p>Flow through source RF - <sup>222</sup>Rn</p>	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Amaliy.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- respublikamizda radon monitoringini takomillashtirish asosida radon darajasini baholashda o‘lchash natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun barqaror faoliyat yurituvchi tizim, respublikada radon monitoring nazorati va radon o‘lchash vositalarini kalibrlash uchun zarur infratuzilma yaratiladi;</li> <li>- xorijiy davlat ilmiy-tadqiqot markazlarida mutaxassislarni malakasi oshiriladi, o‘lchash vositalarini metrologiya tekshiruvidan o‘tkazish uchun xalqaro tavsiyalar bilan uyg‘unlashgan;</li> <li>- 2 ta milliy standartlar ishlab chiqiladi;</li> <li>- laboratoriyaning akkreditatsiya doirasi kengaytiriladi tog‘-kon va metallurgiya, geologiya, sog‘liqni saqlash va ekologiya sohalarida foydalaniladigan radon o‘lchash vositalarining metrologik kuzatuvchanligi ta’minlanadi;</li> <li>- radon faolligi birligi milliy etalonini yaratiladi;</li> <li>- ISO, IEC va EURAMET tavsiyalariga asosan zarur infratuzilma yaratiladi;</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Ishlab chiqilgan milliy standartlar va metodikalar asosida sanoat tarmoqlarida texnik qurilmalar ustidan nazoratni amalga oshiradigan putur yetkazmasdan tekshirish o‘lchash vositalarini ishlash samaradorligi respublikada akkreditatsiyadan o‘tgan laboratoriyalarda va xorijiy milliy metrologiya institutlarida sinovlardan o‘tkaziladi. Standartlar ekspertizadan o‘tgandan keyin o‘rnatilgan tartibda Respublikada davlat standarti sifatida qabul qilinadi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatidagi va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy-tadqiqotlar natijalari chop etib boriladi. Shuningdek, loyiha doirasida 2 nafar mustaqil tadqiqotchi falsafa fanlari doktori (PhD) doktorlik dissertatsiyasini tayyorlaydi va himoya qiladi. Qo‘shimcha ravishda sohani raqamlashtirish maqsadida dasturiy ta’minot yaratish va O‘zbekiston Respublikasi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi.</p> <p>O‘zbekiston milliy metrologiya institutining 2 ta kalibrlash va o‘lchash imkoniyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni (SMS-qatorlar) Xalqaro o‘lchov va tarozilar byurosi (BIPM) tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan asosiy solishtirishlarning ma’lumotlar bazasida (KCDB) chop etish.</p> <p><b>Izoh:</b> Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.</p>